“BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI”

Tursunov Muzaffar Ilxomovich, Abdusaidov Sadriddin Nurali o‘g‘li
Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo’lajak muhandislarniing kasbiy tayyorgarlikini rivojlantirish bosqichlaridan foydalanish usullari ko‘rib o‘tilgan. Bo’lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish ilmiy ahamiyati.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, oliy ta’lim, ta’lim, tarbiya, ko’nikma, kasbiy, muhandislik, loyihalash, tayyorgarlik, intellektual, kompetensiya, ijodiy, kelajak.

Аннотация

В данной статье рассмотрены способы использования этапов развития профессиональной подготовки будущих инженеров. Научное значение для развития профессиональной подготовки будущих инженеров.

Ключевые слова: Молодежь, высшее образование, образование, воспитание, навыки, профессиональная, инженерная, проектная, подготовительная, интеллектуальная, компетентная, творческая, будущее.

Annotation

This article examines the methods of using the stages of the development of professional training of future engineers. Scientific significance of the development of professional training of future engineers.

Keywords: Youth, Higher Education, education, upbringing, skills, professional, engineering, design, preparation, intellectual, competence, creative, future.

Mamlakatimizda o’qitish jarayonining shakllari va texnologiyalari o’zgarishiga, muhandislar tayyorlash sifatini baholash mezonlariga bog’liq bo’lgan ta’lim texnologiyalarini o’quv faoliyatini tashkillashtirishning metodlari bilan transformatsiyasi pedagog-tadqiqotchilar faoliyati uchun keng imkoniyatlar taqdim etmoqda va mamlakatimizda kasbiy faoliyatga jahon amaliyotida qabul qilingan yondashuvlarni bosqichma-bosqich tatbiq etish zarur. Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag’batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy yetishning samarali mexanizmlarini yaratish hamda Innovatsion rivojlanish vazirligining asosiy faoliyat yo’nalishlaridan ta’lim tizimida innovatsiyalarni ishlab chiqishni ta’minlash kabi ustuvor vazifalari belgilandi.[1] Talabalarni muhandislik kasbiy tyyorgarligini takomillashtirishning kelajak yo’nalishlarini belgilash, o’quv jarayonini tashkil etishning turli shakllarini optimallashtirish, bo’lajak mutaxassislarning kasbiy malakasini baholash mezonlarini ishlab chiqish, iqtisodiy taraqqiyotning zamonaviy tendensiyalari mutaxassisning kasbiy fazilatlari sohasiga tobora ko’proq talab qo’yadi.

Bo’lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish uchun qo’yilgan vazifalar.

– bo’lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish o’quvdidaktik vositalar ishlab chiqish;

– transport vositasi muhandisligi ta’lim yo’nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishdan maqsad, pedagogik jarayon va natijaviy bloklariga ustuvorlik berish asosida faoliyatli modelni ishlab chiqish;

– bo’lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini avtotransport vositalarining diagnostikasi o’quv mashg’ulotlarida interfaol ta’lim metodlari va innovatsion texnologiyalarni qo’llash asosida rivojlantirish;

– bo’lajak muhandisliklarning kasbiy tayyorgarligini rivojlanganlaik darajalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish va pedagogik tajriba-sinov ishlarini o’tkazish hamda olingan natijalarga matematik-statistik ishlov berish.

Bo’lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish ilmiy ahamiyati quyidagilar, nazariy materialni eksperimental ravishda sinovdan o’tgan maxsus didaktik o’quv-metodik qo’llanmalari - o’quv mashg’ulotlarining rejali xaritalari va harakatlar ketma-ketligi tasniflagichlari orqali yetkazib berishning taklif etilayotgan usuli avtotransport vositalarining diagnostikasini o’qitish jarayonida nazariy material taqdimotini takomillashtirishga imkon beradigan keyingi uslubiy ishlanmalar uchun asos bo’lishi mumkinligi bilan izohlanadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ulardan oliy ta’lim muassasalarida muhandislar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish bo’yicha me’yoriy-huquqiy hujjatlar va chora-tadbirlar dasturlarini tayyorlash, noan’anaviy usulda mashg’ulotlarni tashkil etish bo’yicha ishlab chiqilgan metodik tavsiyalardan o’quv reja va dasturlar hamda malaka talablarini takomillashtirish, darslik va o’quv qo’llanmalar yaratishda foydalanish mumkin. Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan asosiy taklif va tavsiyalardan oliy ta’lim muassasalarida muhandisliklarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda hamda jamiyatga yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassislar yetkazib berish bilan izohlanadi. [4,5]

Kasbiiy tayyorgarlik ko’nikmasi – bu ta’lim orqali olingan bilimlarga, tajribaga, qadriyatlarga, niyatlarga asoslangan umumiy qobiliyatdir. Tayyorgarlik ko’nikmasi bilim yoki ko’nikmaga tushmaydi; Kasbiiy tayyorgarlik ko’nikmasi – bu olim yoki o’qimishli odam bo’lishni anglatmaydi. Kasbiiy tayyorgarlik ko’nikmasi va ko’nikma o’rtasidagi farqni ajratish kerak. Ko’nikma – bu muayyan vaziyatda harakat, kompetensiya – xatti-harakatlar, ko’nikmalarning kuzatuvlaridan o’rganilishi mumkin bo’lgan xarakteristik xususiyatdir. Shunday qilib, ko’nikmalar amalda kompetensiya sifatida namoyon bo’ladi. “Kasbiy tayyorgarlik” tushunchasi psixologik nuqtai nazardan tayyorgarlik noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan holatlarda mutaxassisning o’zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o’zaro munosabatlarda yangi yo’l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to’la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik»ni anglatadi[6,7]. Kasbiy tayyorgarlik esa mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning egallanishi va ularning amalda yuqori darajada qo’llay olinishi hisoblanadi. Kasbiy tayyorgarlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo’nalish bo’yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o’zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, tayyorgarlik mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axborotlarni o’rganish, muhim ijtimoiy talablarni anglay olish, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o’z faoliyatida qo’llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy tayyorgarlikga ega bo’lgan mutaxassislar o’z bilimlarini izchil boyitib boradi, yangi axborotlarni o’zlashtiradi, davr talablarini chuqur anglaydi, yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o’z amaliy faoliyatida samarali qo’llaydi. Yuqoridagi fikrlar bizni mutaxassis tayyorgarligining sifatiga talab yuqori bo’lgan sharoitda alohida dolzarblik kasb etadigan oliy o’quv yurtlari talabalari muhandislik tayyorgarligining tizimi samaradorligini nazariy asoslanishi va eksperimental tekshirilishi zarurligiga undaydi. Bo’lajak muhandislarning kelajakda rivojlanishi kerak bulgan kasbiy tayyorgarliklarga misollar keltiramiz.

1. Kasbiy faoliyat sohasida yangi ijodiy g’oyalarni shakllantirish va tashkil qilish qobiliyati;

2. Tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda bilimlarni mustaqil ravishda o’zgartirish qobiliyati;

3. Universal bilimlarni ongli ravishda qo’llay olish;

4. Lokal bilimlarni ongli ravishda qo’llay olish;

5. Muhandislik muammolarini tahlil qila olish;

6. Muhandislik yechimlarini loyihalashtirishni amalga oshira olish;

7. Ijtimoiy javobgarlik;

8. Qonunchilik va huquqiy me’yorlarga rioya etish;

9. Muhandislik faoliyatining etikasi;

10. Muhandislik faoliyatini tashkil etish va boshqarish;

11. Kommunikatsiya;

12. Hayoti davomida ta’lim olishni to’xtatmaslik;

13. Lozim joylarda muhandislik qarorlarini qabul qila olish;

14. Muhandislik qarorlari uchun javobgarlik hissini mavjudligi.

Kasbiy tayyorgarlikning talqini turlicha bo’lib, mazmun jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi. Masalan, chet el tadqiqotchilari R. Xagerti, A. Meyxyularning tadqiqotlarida kasbiy tayyorgarlik har qanday mutaxassis kasbiy malakasining asosiy qismidir deyilgan. Shunday qilib ko’plab tadqiqotlarda kasbiy tayyorgarlik, kasbiy bilim, ko’nikma va kasbiy faoliyat usullarining birligi sifatida tushuniladi. Bu mahorat tuzilmasiga kiritiladi, o’z o’rnida kasbiy mamnunlik, kasbiy dolzarblik, kasbiy yaroqlilik kabi ko’rsatkichlar bilan farqlanadi. [10,11]

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Tursunov Muzaffar Ilkhomovich PhD student of Jizzakh Polytechnic Institute Theoretical Foundations For The Development Of Professional Training Of Future Engineers On The Basis Of Digital Technologies Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching ISSN: 2795-739X page 5-9.

2. B.Sharopov; M.Muxtoraliyeva. Pedagogika fanining metodologiyasi. Pedagogs international research journal. 259-262 (2). Volume-2, Issue-1, www. pedagoglar. Uz. 30.01.2022

3. Khamidov Jalil Abdurasulovich, Khujjiev Mamurjon Yangiboevich, Alimov Azam Anvarovich, Gafforov Alisher Xolmurodovich, Khamidov Odil Abdurasulovich. "OPPORTUNITIES AND RESULTS TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF MULTIMEDIA TEACHING IN HIGHER EDUCATION." 4. Tursunov Muzaffar Ilxomovich Jizzax politexnika instituti tayanch doktaranti BO’LAJAK MUHANDISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING BA‘ZI JIHATLARI O‘QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY OFFLINE VA ONLINE KONFERENSIYASI 2024-yil 25, 26-aprel. 138-147

5. Mukhtoraliyeva, M. A., Mamadaliyev, A. T., Umarov, I. I., & Sharopov, B. X. Development of technology on the basis of scientific achievements.«. Матрица научного познания, 28, 4-12.

6. Bakhodir, R., Tukhtamirzaevich, M. A., Mukhtasar, M., & Begyor, S. (2022). Study of the Resistance of Lightweight Concretes Based on Mineral Binders to the Effects of Various Aggressive Environments Jundishapur Journal of Microbiology Research. Article Published online.

7. Toirov, B. B. (2021). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH VOSITASI SIFATIDA. Science and Education, 2(2), 338-343.

8.Шаропов, Б. Х. Ў., Ўғли, М. Ф. Р., & Акбаралиев, Х. Х. Ў. (2022). Қуёш энергиясидан фойдаланиб биноларни энергия самарадорлигини ошириш тадбирлари. Механика и технология, 2(7), 186-191.

9.Хакимов С., Шаропов Б., Абдуназаров А. Бино ва иншоотларнинг сейсмик мустаҳкамлиги бўйича хорижий давлатлар (россия, япония, хитой, ақш) меъёрий хужжатлари таҳлили //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – С. 806-809

10. Sharopov, B., Hakimov, S., Umarov, I., Muxtoraliyeva, M., Dadaxanov, F., & Abdunazarov, A.(2022).Quyosh energiyasidan foydalanib turar joy binolari qurishning istiqboli tomonlari. Journal of new century innovations, 18(1),135- 141.

11.Khakimov, S. R., & Sharopov, B. K. (2023). Educational Quality Improvement Events Based on Exhibition Materials in Practical Training Lessons. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education, 1(2), 5-10.

12. O‘g‘Li, S. B. X., & O‘g‘Li, M. F. R. (2022). Quyosh energiyasidan foydalanib turar joy binolari qurishning istiqboli tomonlari. Механика и технология, (Спецвыпуск 1), 145-149.